



BOLALAR SHE'RIYATI ASOSIDA IJODIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHDA DIDAKTIK METODLAR SAMARADORLIGI

Inoyatova Dilnoza Qunonboy qizi,
Qo'qon universiteti tayanch doktoranti.
e-mail: dilnoza3300@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 9-fevral 2026-yil

Tasdiqlandi: 11-fevral 2026-yil

Jurnal soni: 17-B

Maqola raqami: 66

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v17i.1522>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/

KEYWORDS

ijodiy tafakkur, bolalar she'riyati, boshlang'ich ta'lim, didaktik metodlar, tajriba-sinov, originallik, fantaziya, obrazli fikrlash

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy tafakkurini bolalar she'riyati asosida shakllantirish masalasi yoritilgan. Tadqiqotda she'riyat orqali obrazli fikrlash, noodatiy yondashuv va emotsional ifodaning o'sishiga xizmat qiluvchi samarali didaktik metodlar aniqlanib, amaliyotda sinovdan o'tkazildi. Tajriba-sinov ishlari asosida tanlangan metodlarning – "Fantaziya savati", "She'rni davom ettir", "Obrazni jonlantir" kabi usullarning ijodiy tafakkur komponentlariga ta'siri ilmiy asosda tahlil qilindi. Bugungi kunda ijodiy tafakkurga ega, mustaqil fikrlaydigan shaxs tarbiyasi har bir pedagog oldidagi ustuvor vazifa ekanligi asoslab berilgan. Shuningdek, xorijiy tajribalar bilan taqqoslab, milliy ta'lim sharoitida tatbiq qilish imkoniyatlari ochib berildi. Maqolada tajriba natijalari asosida aniq xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri – o'quvchilarda ijodiy tafakkurni shakllantirish va uni doimiy rivojlantirib borishdan iboratdir. Global tendensiyalar, ilm-fan taraqqiyoti va innovatsion texnologiyalarning jadal sur'atlarda rivojlanishi zaminida inson salohiyatining yangi bosqichda namoyon bo'lishi zarurati yotadi. Ayniqsa, ta'limning boshlang'ich bosqichida o'quvchilarning erkin fikrlashi, noodatiy yondashuvlar bilan muammolarni hal etish qobiliyatini shakllantirish zamonaviy pedagogikaning eng dolzarb masalalaridandir. Shu sababli bugungi kunda ijodiy tafakkurga ega, mustaqil fikrlaydigan shaxs tarbiyasi har bir pedagog oldidagi ustuvor vazifaga aylangan.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy tafakkurini bolalar she'riyati asosida rivojlantirishda samarali bo'lgan didaktik metodlarni aniqlash, ularni amaliyotda sinovdan o'tkazish va natijalarini tahlil qilishdan iborat.

Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

1. Ijodiy tafakkur tushunchasining nazariy asoslarini o'rganish, uni rivojlantiruvchi omillar, ayniqsa boshlang'ich maktab yoshidagi o'quvchilarda bu jarayonning psixologik-pedagogik xususiyatlarini tahlil qilish.

2. Bolalar she'riyati va uning ta'limdagi roli bo'yicha ilg'or nazariy va amaliy tajribalarni tahlil qilish, xususan, she'rlar orqali obrazli fikrlash, emotsional sezgirlik va original yondashuvlarni shakllantirish imkoniyatlarini aniqlash.

3. Ijodiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan didaktik metodlar tanlovi va ularni bolalar she'riyati asosida moslashtirish, shu jumladan: interfaol topshiriqlar, ijodiy o'yinlar, vizual-muloqotli usullar.

4. Tanlangan metodlarni eksperimental tarzda sinovdan o'tkazish, nazorat va tajriba guruhlarini o'rtasidagi farqni aniqlash, o'zgarishlarni sifat va miqdor jihatdan baholash.

5. Tajriba natijalarini tahlil qilish, o'quvchilarning ijodiy tafakkur darajasida yuzaga kelgan o'zgarishlarni aniqlash va metodlarning samaradorligini isbotlash.

6. Metodik tavsiyalar ishlab chiqish, boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun ijodiy tafakkurni bolalar she'riyati asosida shakllantirishga oid amaliy uslubiy ko'rsatmalarni taklif etish.

Tadqiqotning obyekti – boshlang'ich ta'lim jarayonidagi o'quvchilarning ijodiy tafakkurini shakllantirish holatidir. Bu bosqichda o'quvchilarning psixologik-mental rivojlanishi, bilim olishga bo'lgan qiziqishi, shuningdek, ularda ijodiy faoliyatni rag'batlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik muhit va uslublar o'rganiladi.

Tadqiqotning predmeti – bolalar she'riyati asosida ijodiy tafakkurni shakllantirishda qo'llaniladigan didaktik metodlar va ularning

samaradorligidir. Ya'ni, dars jarayonida she'riy materiallar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar, ijodiy topshiriqlar, obrazli fikrlashga yo'naltirilgan metodlar orqali o'quvchilarda tafakkur faolligini oshirish mexanizmlari tahlil qilinadi.

Mazkur predmet doirasida quyidagi jihatlar chuqur o'rganiladi:

- She'rning mazmuni orqali o'quvchining ichki dunyosiga ta'sir qilish omillari;
- Ijodiy fikrni rag'batlantiruvchi didaktik topshiriqlar turlari;
- Metodlarning o'zaro taqqoslanishi va ularning dars samaradorligiga ta'siri;
- Bolalar tafakkuridagi o'zgarishlarni kuzatish uchun samarali baholash mezonlari.

Shunday qilib, ushbu tadqiqotning ob'ekti va predmeti bir-birini to'ldiruvchi holda boshlang'ich ta'limda ijodiy tafakkur rivojlanishini bolalar she'riyati orqali pedagogik nuqtai nazardan chuqur tahlil qilishga yo'naltirilgan.

Adabiyotlar tahlili. Boshlang'ich ta'lim bosqichi bola tafakkurining eng faol shakllanish davri bo'lib, aynan shu pallada berilgan ta'lim sifati, uslubi va vositalari o'quvchining keyingi bosqichdagi aqliy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Psixologik va pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijodiy tafakkur unsurlari – ravonlik, original fikrlilik, tafsilotlarga e'tibor, moslashuvchanlik – aynan boshlang'ich sinf yoshida eng faol shakllanadi. Bu esa o'qituvchining tanlagan metodlari va didaktik materiallarining sifatiga bevosita bog'liqdir.

Bunday sharoitda bolalar adabiyoti, xususan, she'riyat alohida o'rin tutadi. She'riy matnlarning ritmik tuzilmasi, obrazlilik darajasi, estetik ta'sir kuchi o'quvchida tasavvur, emotsional qabul, ijodiy ong va his-tuyg'ular uyg'unligini ta'minlaydi. She'rlar bola tafakkurida yangi obrazlarni vujudga keltiradi, fikrlash jarayonini faollashtiradi, ularni yangi g'oyalar yaratishga ilhomlantiradi. Vigotskiy¹, L.S.Rubinshteyn², A.Leontev³ kabi olimlar ijodiy tafakkur bilan til, emotsional ong, estetik qabul o'rtasidagi uzviy aloqani ta'kidlaganlar. She'riyat esa aynan mana shu jihatlarini o'zida mujassam etgan didaktik vositadir.

Shunga qaramay, amaliyotda bolalar she'riyati dars jarayonlarida asosan fonetik yoki emotsional qabul qilishga qaratilgan bo'lib, u orqali ijodiy tafakkurni rivojlantirishga yetarlicha e'tibor qaratilmayapti. O'quvchilar ko'pincha she'rni yod olish yoki ifodali o'qish bilan cheklanadi. Bu esa she'r orqali fikr yuritish, yangi g'oyalar yaratish, obrazli tafakkurni faollashtirish imkoniyatlarini cheklaydi. Shu nuqtai nazardan, bolalar she'riyati asosida ijodiy tafakkurni shakllantirishga qaratilgan maxsus didaktik metodlarni ishlab chiqish va ularning samaradorligini tahlil qilish zamon talabi bo'lib qolmoqda.

¹ Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте: психологический очерк. – 2-е изд. – М.: Просвещение, 1967. – 96 с.

² Рубинштейн С.Л. О мышлении и путях его исследования. – М.: Изд-во АН СССР, 1958. – 148 с.

³ Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – М.: Политиздат, 1975. – 304 с.

Metodologiya. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy tafakkurini bolalar she'riyati asosida rivojlantirishda qo'llanilgan tadqiqot metodlari kompleks va tizimli yondashuvga asoslandi. Tadqiqotda qo'llanilgan metodlar asosan pedagogik kuzatuv, tajriba-sinov, suhbat, diagnostik testlar, kontent-analiz kabi klassik va zamonaviy tahliliy usullarni o'z ichiga oladi. Har bir metod tadqiqotning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib tanlandi.

Pedagogik kuzatuv. Ushbu metod yordamida dars jarayonida o'quvchilarning ijodiy faolligi, she'riy materiallarga munosabati, mustaqil fikrlashi va emotsional qamrovi o'rganildi. Kuzatuvlar tizimli ravishda olib borilib, maxsus kuzatuv varaqalari asosida qayd etildi.

Tajriba-sinov (eksperiment). Tajriba metodining asosiy maqsadi – tanlangan didaktik metodlarning samaradorligini amaliyotda sinab ko'rish va natijalarni solishtirishdir. Tadqiqotda ikki sinf: tajriba guruhi va nazorat guruhi ishtirok etdi. Tajriba guruhida she'riy asoslarga tayangan holda maxsus metodik topshiriqlar qo'llanildi, nazorat guruhida esa an'anaviy yondashuvlar asosida darslar olib borildi. Har ikki guruhga tajriba oldi va tajriba so'ngida maxsus diagnostik testlar qo'llanildi.

Suhbat va intervyular. O'quvchilar va boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilan o'tkazilgan suhbatlar orqali ularning ijodiy faoliyatga munosabati, she'riyat bilan ishlashdagi qiyinchiliklar va qiziqishlar o'rganildi. O'qituvchilarning didaktik yondashuvlari ham tahlil qilindi.

Diagnostik testlar. Ijodiy tafakkurning asosiy komponentlari – ravonlik, original fikrlilik, tafsilotlarga boylik darajasi maxsus testlar orqali baholandi. Bu testlar Torrens ijodiy tafakkur modeliga asoslanib moslashtirildi.

Kontent-analiz. Bolalar she'riyati namunalarining mazmuniy, obrazli va stilistik xususiyatlari kontent-analiz asosida o'rganildi. Bu orqali pedagogik jihatdan ijodiy tafakkurga eng ko'p ta'sir ko'rsatadigan she'riy birliklar (so'z o'yini, metafora, allegoriya, ritm) aniqlandi.

Mazkur tadqiqot tajriba-sinov asosida amalga oshirildi va u boshlang'ich ta'lim bosqichidagi o'quvchilarning ijodiy tafakkurini bolalar she'riyati orqali shakllantirishga qaratildi. Tadqiqot 2024–2025 o'quv yili davomida Farg'ona viloyatidagi umumiy o'rta ta'lim maktablaridan biri — Qo'qon shahri 15-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining 2-sinfida olib borildi.

Tajriba-sinov ishlarida jami 56 nafar o'quvchi qatnashdi, ular ikki guruhga ajratildi:

Tajriba guruhi: 28 nafar o'quvchi (2-“A” sinf)

Nazorat guruhi: 28 nafar o'quvchi (2-“B” sinf)

Tajriba va nazorat guruhlariga teng shartlarda tanlab olindi. Ular bir xil dastur asosida o'qitilayotgan, o'xshash ijtimoiy muhit va psixologik holatlarga ega sinflardir. Har ikkala guruhda darslar malakali boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan olib borilgan. Shuningdek, dars o'tish uchun zarur didaktik vositalar, texnik jihozlar (projektor, ekran, audio kitoblari) mavjud bo'lgan.

Tajriba guruhi uchun maxsus ishlab chiqilgan mashg'ulotlar to'plami asosida darslar tashkil etildi. Bu mashg'ulotlarda bolalar she'riyati asosida:

- obrazli fikrlashni rag'batlantiruvchi topshiriqlar,
- kreativ yozuv mashqlari,
- drammatizatsiya,
- she'r asosida sahnalashtirish va tasviriy topshiriqlar,
- “Fantaziya savati”, “She'rni davom ettir”, “So'zdan hikoya yarat” kabi metodlar qo'llandi.

Nazorat guruhida esa o'quvchilarga odatiy dars rejasi asosida she'r yod olish, ifodali o'qish va savol-javob orqali faoliyat olib borildi.

Tajribadan oldin va so'ng ikkala guruhda ijodiy tafakkur ko'rsatkichlarini aniqlovchi maxsus diagnostik testlar o'tkazildi. Testlar natijalari guruhlar o'rtasidagi tafovutni aniqlash, metodlar samaradorligini baholash imkonini berdi.

Tadqiqot jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy tafakkurini bolalar she'riyati asosida shakllantirishga xizmat qiluvchi bir qator innovatsion va interfaol metodikalar ishlab chiqildi hamda amaliyotda sinovdan o'tkazildi. Ushbu metodikalar bolalarning psixologik, yoshga oid va estetik qabul qilish xususiyatlariga mos holda tanlandi. Ularning asosiy maqsadi – o'quvchilar tafakkurini faollashtirish, obrazli fikrlash va erkin ifoda etish ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.

Quyida tajriba jarayonida qo'llangan asosiy metodikalar bayoni keltiriladi:

1. **“She'rni davom ettir” metodi.** Bu metod bolalarning yarim bayt yoki yarim jumla bilan berilgan she'r satrlarini mustaqil to'ldirish orqali tafakkur yuritishini rag'batlantiradi. O'quvchilar she'rning mavzusidan

kelib chiqib, o'z fikrini original tarzda bayon etishga intiladi. Metod ijodkorlik, ritm va ifoda vositalarini sezish qobiliyatini oshiradi.

2. **“Obrazli tasvirdan she'rga” metodi.** O'quvchilarga berilgan rasm, tasvir yoki surat asosida she'r yozish topshirig'i beriladi. Vizual qabul orqali obraz hosil qilish va uni so'zga aylantirish orqali bolada kreativ-assotsiativ tafakkur shakllanadi. Bu metod bolalarning obrazli fikrlashini kuchaytiradi.

3. **“So'zdan hikoya, hikoyadan she'r” metodi.** Berilgan so'zlar majmuasi (masalan: “bulut”, “yaproq”, “shamol”, “qush”) asosida avval kichik hikoya, so'ng uni she'r shaklida ifodalash topshirig'i beriladi. Bu ikki bosqichli ijodiy faoliyat bola tafakkurining moslashuvchanligi va tafsilotga e'tiborini rivojlantiradi.

4. **“She'rli drammatizatsiya” metodi.** Tanlangan she'rni kichik sahna ko'rinishiga aylantirish, rollarga bo'lish, emotsional ifoda bilan ijro etish orqali o'quvchilarning his qilish, personajni tushunish va o'z fikrini ifodalash qobiliyatlarini shakllanadi. Metod teatr elementlari orqali ijodiy tafakkurni uyg'otadi.

5. **“Fantaziya savati” usuli.** Savatda turli so'z yoki predmet nomlari yozilgan kartochkalar bo'ladi. O'quvchilar kartochka tanlab, ushbu so'z asosida she'r satri yoki kichik satirik obraz hosil qiladi. Bu metod bolaning nostandart bog'lanishlar qurish, tasavvur qilish va yangi g'oyalarni shakllantirish layoqatini rivojlantiradi.

6. **“She'rni visuell tarzda ifodalash” (she'rga chizma).** She'r o'qilgach, o'quvchilardan uning mazmuniga mos rasm chizish so'raladi. Bu orqali ularning ichki qabul qilish darajasi, tafsilotlarga bo'lgan e'tibori va obrazlarni tasvirlash qobiliyati aniqlanadi. Metod vizual va verbal tafakkurni birlashtiradi.

7. **“She'r bilan o'ylaymiz” metodi.** Bu integratsiyalashgan metod bo'lib, she'r asosida savol-javob, rol o'ynash, hikoya qilish, misralarni almashtirish kabi turli mashg'ulotlarni birlashtiradi. O'quvchilar turli faoliyat orqali she'rni angelaydi va unga ijodiy yondashadi.

Ushbu metodikalar tajriba guruhi darslarida tizimli tarzda qo'llanildi. Har bir metod bola tafakkurini rivojlantirishning alohida komponentiga xizmat qildi: ravonlik, originallik, moslashuvchanlik, tafsilotlarga e'tibor. Ushbu metodlar asosida tuzilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning faolligi, qiziqishi va ijodiy natijalarida sezilarli yuksalishga olib keldi.

Tajriba-sinov ishining boshlanishida, ya'ni tajriba oldi bosqichida ishtirokchi o'quvchilarning ijodiy tafakkur darajasi diagnostik vositalar orqali aniqlab olindi. Ushbu bosqichning asosiy maqsadi — eksperiment boshlanishidan avval har ikki guruh (nazorat va tajriba guruhlariga) o'quvchilarning ijodiy tafakkur ko'rsatkichlarini aniqlash, ularning boshlang'ich darajasini baholash va tajriba yakunidagi o'zgarishlarga ilmiy asos bo'lishi uchun dastlabki holatni aniqlab olishdan iborat edi.

Tahlil qilishda ijodiy tafakkurning quyidagi asosiy komponentlariga e'tibor qaratildi:

a) ravonlik: O'quvchining berilgan mavzu asosida ko'plab fikrlar ilgari surish qobiliyati.

b) originallik: Noodatiy va betakror fikrlar bildirish darajasi.

c) tafsilotlarga boylik: Fikrning chuqurligi, aniqligi va rivojlanganligi.

d) moslashuvchanlik: Turli kontekstlarda har xil yondashuvlar orqali muammoni hal qilish layoqati.

Diagnostika uchun Torrens ijodiy tafakkur testining moslashtirilgan varianti asosida tayyorlangan topshiriqlar majmuasi qo'llanildi. Ushbu testlar bola yoshiga moslashtirilib, so'z asosida hikoya to'qish, rasmdan kelib chiqib misra yaratish, ob'ektlar orasidagi noodatiy bog'lanishlarni toppish, “Agar men...” deb boshlanuvchi shartli iboralarni davom ettirish.

Tajriba oldi bosqichida olingan natijalar quyidagicha umumlashtirildi:

- O'quvchilarning aksariyati berilgan topshiriqlarga standart va odatiy yondashuv bilan javob bergan.

- “So'zdan hikoya tuzish” kabi topshiriqlarda ravonlik darajasi past, ya'ni fikrlar soni kam bo'lgan.

- Originallik darajasi aksariyat o'quvchilarda sust bo'lib, ularning fikrlari ko'proq andozaviylikka asoslangan.

- Tafsilotlarga boylik ko'rsatkichi past bo'lib, o'quvchilar o'z fikrini oddiy shaklda bildirgan, tasvirlarga kirishmagan.

- Moslashuvchanlik (kontekstdan kontekstga o'tish) deyarli kuzatilmagan.

1-jadvalda tajriba va nazorat guruhlariga o'rtasidagi dastlabki diagnostika natijalari foiz ko'rinishida keltirilgan:

1-jadval. Tajriba va nazorat guruhlarini o'rtasidagi dastlabki diagnostika natijalari foiz ko'rinishida.

Ijodiy tafakkur komponenti	Tajriba guruhi (%)	Nazorat guruhi (%)
Ravonlik (fluency)	43%	41%
Originallik (originality)	35%	36%
Tafsilotlar (elaboration)	31%	30%
Moslashuvchanlik	28%	29%

Ushbu raqamlar har ikki guruhda o'quvchilarning ijodiy tafakkur darajasi deyarli bir xil va noyon shakllangan ekanligini ko'rsatdi. Bu esa eksperiment uchun sharoitlar bir xilligini ta'minlab, tajriba natijalarining haqqoniyligini ta'minlashga asos yaratdi.

Tajriba guruhi bilan olib borilgan mashg'ulotlar maxsus ishlab chiqilgan bolalar she'riyati asosidagi didaktik metodikalar asosida tashkil etildi. Ushbu mashg'ulotlar ijodiy tafakkurning asosiy komponentlari – ravonlik, original fikrlilik, tafsilotlarga boylik va moslashuvchanlikni shakllantirishga qaratildi. Darslar an'anaviy shakldan farqli tarzda, o'quvchilarni faol ijodkorlikka jalb etuvchi interfaol metodlar yordamida o'tkazildi.

Mashg'ulotlar haftasiga 2 marotaba, 8 hafta davomida olib borildi. Har bir darsda alohida pedagogik maqsad, metodik vosita va ijodiy faoliyat turi tanlab olindi. Quyida ushbu mashg'ulotlarning namunaviy shakli, tarkibi va kuzatilgan samaralari yoritib beriladi:

1-mashg'ulot: "She'rni davom ettir". O'quvchilarga mashhur bolalar she'rlaridan bir necha satri berildi va ularni davom ettirish topshirildi. Ravonlik va original fikrlilik komponentlarida harakatlanish kuzatildi. O'quvchilar har xil, noodatiy yakunlar taklif qila boshladilar.

2-mashg'ulot: "Obrazni jonlantir". She'r qahramonlari (bulut, quyosh, shamol) personajga aylantirilib, ular nomidan gapirish topshirig'i berildi. O'quvchilarning obrazli fikrlash va fantaziya doirasi kengaya boshladi.

3-mashg'ulot: "So'zdan hikoya, hikoyadan she'r". So'zlar majmuasidan hikoya yozish, so'ng uni she'rga aylantirish vazifasi berildi. Tafsilotlarga boylik ko'rsatkichi ancha faol bo'ldi. Ba'zi o'quvchilar so'z boyligini mustaqil ishlata boshladilar.

4-mashg'ulot: "Fantaziya savati". Har bir o'quvchi savatdan tasodifiy kartochka tanlab, undagi predmet asosida she'r misrasi o'ylab topdi. Originallik va moslashuvchanlik komponentlarida kuchli rivojlanish kuzatildi.

5-mashg'ulot: "She'r asosida rasm". She'r o'qib eshitgach, uning mazmuniga mos rasm chizish topshirildi. Ko'p hollarda o'quvchilar rasmlarga noma'lum tafsilotlarni kiritib, o'z tasavvurini ifodaladilar.

Mashg'ulotlar davomida o'quvchilar topshiriqlarni zavq bilan bajarib, darslarga faol qatnasha boshladi. Noodatiy bog'lanishlar, metaforalar, o'xshatishlardan foydalanish holatlari ko'paydi. Ijodiy faollikda farqlar paydo bo'lib, ilg'or o'quvchilar boshqalarga ijodiy ilhom manbai bo'la boshladi. Har bir darsdan so'ng kichik yozma yoki og'zaki ijodiy ishlarni (she'r, hikoya, rasm, drammatizatsiya) to'plandi.

Ushbu mashg'ulotlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, bolalar she'riyati asosida tashkil etilgan metodik yondashuvlar faqat adabiy-estetik emas, balki psixologik va intellektual jihatdan ham ijodiy tafakkurga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu darslar orqali o'quvchilar o'z fikrini mustaqil ifodalashga, fantaziya bilan fikrlashga, obrazlar ustida ishlashga va o'zgacha yondashuvlar izlashga o'rgandilar.

Natijalar. Tajriba yakunida tajriba va nazorat guruhlarini o'rtasida o'quvchilarning ijodiy tafakkur darajasida sezilarli farqlar kuzatildi. Bu farqlar tajriba guruhi mashg'ulotlarida qo'llanilgan didaktik metodlarning samarali bo'lganini ko'rsatdi. O'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini baholashda tajriba oldi bosqichida qo'llanilgan diagnostik testlarning o'zi asos qilib olindi, bu esa o'zgarishlarni ilmiy aniqlik bilan solishtirish imkonini berdi.

Tajriba so'ngida olingan ma'lumotlar quyidagi mezonlar asosida baholandi:

- ravonlik : o'quvchining fikrlar soni va xilma-xilligi.
- originallik: betakror va noodatiy yondashuvdagi javoblar.
- tafsilotlarga boylik: fikrning chuqurligi, obrazli tasvir va izohlar.
- moslashuvchanlik: har xil g'oyalar o'rtasida erkin o'tish qobiliyati.

2-jadvalda tajriba oldi va tajriba so'ngidagi ko'rsatkichlar foiz ko'rinishida keltirilgan:

2-jadval. Tajriba oldi va tajriba so'ngidagi ko'rsatkichlar foiz ko'rinishida.

Ijodiy tafakkur komponenti	Tajriba guruhi (oldin)	Tajriba guruhi (so'ng)	Nazorat guruhi (oldin)	Nazorat guruhi (so'ng)
Ravonlik	43%	74%	41%	47%
Originallik	35%	68%	36%	42%
Tafsilotlarga boylik	31%	65%	30%	38%
Moslashuvchanlik	28%	63%	29%	34%

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhi o'quvchilarida ijodiy tafakkur ko'rsatkichlarining barcha komponentlari bo'yicha sezilarli o'sish kuzatildi. Nazorat guruhida esa bu o'zgarishlar deyarli minimal darajada bo'lib, faqatgina umumiy dars jarayoni bilan bog'liq tabiiy o'zgarishlarni aks ettiradi. Ayniqsa, "originallik" va "moslashuvchanlik" ko'rsatkichlari tajriba guruhida keskin oshgan bo'lib, bu metodlar o'quvchilarning noodatiy yondashuv va assotsiativ fikrlashini rag'batlantirganini ko'rsatadi.

Tajribadan so'ng o'tkazilgan suhbatlar, o'quvchilarning ijodiy ishlari (she'r, hikoya, tasvir, dramatik chiqishlar) va darslar davomida kuzatilgan faoliyatlardan keyin o'quvchilar o'z fikrini erkin, ishonch bilan ifodalay boshlagan, betakror va obrazli fikrlashga intilish kuchaygan, she'r ustida ishlash jarayoni o'quvchilarda zavq va ruhiy ko'tarinkilikni yuzaga keltirgan.

Ushbu o'zgarishlar tajriba davomida qo'llanilgan metodik yondashuvlarning nafaqat didaktik, balki psixologik jihatdan ham ijobiy samara berganini tasdiqlaydi. She'riyatga asoslangan mashg'ulotlar o'quvchilarda mustaqil fikrlash, kreativ yondashuv, hissiy sezuvchanlik va ifodaviylikni rivojlantirdi.

Tajriba-sinov ishlarining yakuniy natijalari bolalar she'riyati asosida tashkil etilgan didaktik metodlarning boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishdagi yuqori samaradorligini yaqqol namoyon qildi. O'quvchilarning tajriba oldi va tajriba so'ngidagi ijodiy tafakkur ko'rsatkichlari o'rtasidagi farq, ayniqsa, ravonlik, originallik va tafsilotlarga boylik jihatidan sezilarli bo'lib, bu o'zgarishlar tajriba guruhi darslarida qo'llanilgan metodlarning maqsadga muvofiq tanlanganidan dalolat beradi.

Tajriba guruhi o'quvchilari o'z fikrlarini oldingi bosqichga nisbatan erkin, batafsil, emotsional va obrazli tarzda ifodalashga intilganlari kuzatildi. She'r asosida tashkil etilgan topshiriqlar o'quvchilarda qiziqish va ishtiyoqni oshirdi, natijada ular faol ishtirokchi sifatida darsga jalb etildi. She'riy matn asosida yangi g'oyalarni ilgari surish, obrazli tafakkur qilish, mavjud voqelikni boshqa burchakdan ko'ra olish qobiliyati shakllandi. O'quvchilar og'zaki va yozma nutqda mustaqil fikr ifodalashga o'rgandilar. She'riy asarlardagi ritm, tuzilma, badiiy vositalar orqali go'zallikni idrok etish va o'z ifodasini estetik shaklda ifoda qilish ko'nikmasi shakllandi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, ijodiy tafakkur o'z-o'zidan shakllanmaydi, balki uni rivojlantirish uchun maxsus yondashuv, qulay pedagogik muhit va mos vositalar zarur. She'rlar bilan ishlash jarayonida o'quvchilar betakror fikrlar yaratishga, o'z dunyoqarashini kengaytirishga intiladi. Ayniqsa, "Fantaziya savati", "Obrazni jonlantir", "So'zdan hikoya, hikoyadan she'r" kabi metodlar bolalarda original fikrlashni faollashtirgan eng samarali usullardan bo'ldi.

Shuningdek, o'quvchilarning ijodiy ishlari, suhbatdagi fikrlari va darsdagi ishtiroklari asosida shunday xulosaga kelish mumkin: ijodiy tafakkur darsdan tashqari faoliyatga ham o'tadi, ya'ni o'quvchilar o'z hayotiy holatlarida ham she'r orqali fikr bildirish, obraz yaratish, drammatizatsiya qilish ko'nikmalarini qo'llashga harakat qilganlar.

Muhokama. Mazkur natijalar ijodiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlarning bolalar adabiyoti, ayniqsa, she'riyat vositasida samarali amalga oshirilishini nazariy va amaliy jihatdan asoslab berdi. Bu esa pedagogik jarayonda estetik vositalarning ta'limiy imkoniyatlarini chuqur tahlil qilish va keng qo'llash zarurligini ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqot natijalari xalqaro miqyosdagi ilg'or pedagogik tajribalar bilan taqqoslanganda, bolalar adabiyoti, ayniqsa she'riyat orqali ijodiy tafakkurni shakllantirish g'oyasi dunyo ta'lim amaliyotida keng qo'llanilayotganini ko'rsatadi. Tadqiqotda qo'llanilgan metodik yondashuvlar bir qator yirik pedagogik nazariyalar bilan uyg'unlikda ishlangani, ularning amaliy samarasini kuchaytirganini ko'rish mumkin.

Masalan, amerikalik olim E.P. Torrens tomonidan ishlab chiqilgan ijodiy tafakkur testlarida aynan obrazli tasvirlash, noodatiy bog'lanishlarni topish, noan'anaviy javoblarni shakllantirish kabi ko'nikmalar asosiy mezon sifatida olinadi. Ushbu komponentlar tadqiqot davomida ishlatilgan didaktik metodlar, xususan "Fantaziya savati" va "She'rni davom ettir" metodlarida faol aks ettirilgan.

Shuningdek, rus psixologi L.S. Vigotskiy ijodiy tafakkurni bolaning emotsional va nutqiy faoliyati bilan bog'liq holda ko'radi. Unga ko'ra, estetik qabul, til orqali tasvir yaratish va obrazli fikrlash bolaning ichki dunyosini boyitadi. Vygotskiyning bu qarashlari bolalar she'riyati orqali ijodiy tafakkurni shakllantirish g'oyasini nazariy jihatdan asoslab beradi. Tadqiqotda bu yondashuvlar "She'rli drammatizatsiya" va "Obrazni jonlantir" metodlari orqali amaliyotda tasdiqlandi.

Finlyandiya boshlang'ich ta'lim tizimida esa o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish uchun interfaol o'yinlar, topshiriqlar, rasm va hikoya integratsiyasi keng qo'llaniladi. Bu tajribalar ham mazkur tadqiqot metodlari bilan o'zaro uyg'unlik kasb etadi. Xususan, "She'r asosida rasm" metodi Fin maktablarida qo'llanilayotgan "multimodal tasviriy ifoda" yondashuviga juda yaqin.

Tadqiqotda foydalanilgan metodikalar Shveysariya va Yaponiya boshlang'ich ta'lim tizimlarida ham e'tirof etilgan yondashuvlarga mos keladi. Bu mamlakatlarda bolalarda assotsiativ fikrlashni rivojlantirish uchun metafora, allegoriya, tasviriy ifoda va dramatik mashqlar asosiy vosita sifatida qo'llaniladi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdiki, bolalar she'riyati asosida ijodiy tafakkurni shakllantirishga qaratilgan metodikalar ilmiy-nazariy asosga ega, xalqaro tajribalarga uyg'un, mahalliy o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos bo'lib, ularni o'zbek boshlang'ich ta'lim amaliyotiga tatbiq etish orqali o'quvchilar tafakkurini chuqur rivojlantirish mumkin.

Mazkur tadqiqot davomida muayyan ilmiy natijalarga erishilgan bo'lsa-da, uning ayrim cheklovli jihatlarini ham e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Ushbu cheklovlar natijalarni umumlashtirishda ehtiyotkorlik

bilan yondashishni talab qiladi va kelgusida tadqiqot doirasini kengaytirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Tadqiqot faqat bir maktabning ikki sinfida, 56 nafar o'quvchi ishtirokida amalga oshirildi. Bu esa metodlarning barcha mintaqalarda yoki turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitdagi maktablarda ham bir xil samaradorlik berishini to'liq kafolatlay olmaydi. Mashg'ulotlar 2 oy (8 hafta) davomida olib borildi. Ijodiy tafakkurning barqaror shakllanishi ko'proq vaqt va tizimli ta'limni talab etadi. Shuning uchun, uzoq muddatli monitoring va kuzatuvlar kerak.

Ijodiy tafakkurni baholashda asosan moslashtirilgan testlar va kuzatuvlar asosida ish olib borildi. Ammo har bir bolaning ichki tafakkur jarayonini to'liq o'lchab beruvchi universal baholash vositalari mavjud emasligi natijalarni cheklashi mumkin. Tadqiqot muvaffaqiyati o'qituvchining metodik bilimiga va ijodiy yondashuviga kuchli bog'liq. Har bir pedagog bu metodlarni bir xil darajada samarali qo'llay olmasligi mumkin.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy tafakkurini bolalar she'riyati asosida shakllantirishda samarali didaktik metodlardan foydalanish katta amaliy va nazariy ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi. Tajriba-sinov ishlari qo'llanilgan usullar – "Fantaziya savati", "She'rni davom ettir", "So'zdan hikoya, hikoyadan she'r", "Obrazni jonlantir" kabi metodlar o'quvchilarning tafakkur faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Ularning ravonlik, original fikrlilik, tafsilotlarga boylik va moslashuvchanlik kabi komponentlari yuqori darajada rivojlandi.

Tajriba va nazorat guruhlar o'rtaidagi farqlar asosida shuni ishonch bilan ta'kidlash mumkinki, she'riyat asosida tashkil etilgan ijodiy mashg'ulotlar nafaqat nutqiy va estetik rivojlanishga, balki intellektual tafakkurga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa bolalarda mustaqil, erkin, noan'anaviy yondashuvda fikr bildirishga zamin yaratadi.

Tadqiqot davomida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

1. Bolalar she'riyati boshlang'ich ta'limda ijodiy tafakkurni rivojlantiruvchi kuchli didaktik vosita hisoblanadi.

2. Maxsus tanlangan va puxta rejalashtirilgan metodik yondashuvlar ijodiy tafakkur komponentlarining har birini faollashtirishga xizmat qiladi.

3. O'quvchilar o'z fikrini she'r orqali ifodalashga o'rgana boshlaydi, bu esa ularning erkin va original fikrlash qobiliyatini mustahkamlaydi.

4. Darslarda badiiy-estetik materiallardan ijodiy foydalanish o'quvchilarning darsga bo'lgan motivatsiyasi, ishtiroki va bilim samaradorligini oshiradi.

Tadqiqot yakunida quyidagi amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

1. Boshlang'ich sinf adabiyot darslarida ijodiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar to'plami ishlab chiqilsin;

2. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar tayyorlanib, she'riy materiallar bilan ishlashda ijodiy yondashuvga urg'u berilsin;

3. Ijodiy tafakkurni o'lchash va baholash uchun milliy mezonlar tizimi ishlab chiqilsin;

4. Darsdan tashqari faoliyat (klublar, she'r yozish tanlovlari, teatr elementlari) orqali ham ijodiy tafakkur tizimli rivojlantirilsin.

Shunday qilib, bu tadqiqot orqali boshlang'ich ta'limda she'riyatni nafaqat estetik vosita, balki ijodiy tafakkurni shakllantiruvchi pedagogik resurs sifatida samarali qo'llash mumkinligi isbotlandi. Kelajakda bu yo'nalishda olib boriladigan keng ko'lamli izlanishlar va metodik yangiliklar ta'lim sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Torrance, E. P. (1974). *Torrance Tests of Creative Thinking*. Scholastic Testing Service.
2. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.
3. Runco, M. A. (2007). *Creativity: Theories and Themes*. Academic Press.
4. Begimqulova, M. (2021). Boshlang'ich ta'limda bolalar adabiyoti orqali estetik tarbiya. *Ta'lim va taraqqiyot*, (3), 44–49.
5. Xolmurodova, S. (2020). Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy fikrlashni rivojlantirishda bolalar she'riyatining roli. *Pedagogika va psixologiya muammolari*, (2), 62–67.

6. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте: психологический очерк. – 2-е изд. – М.: Просвещение, 1967. – 96 с.

7. Рубинштейн С.Л. О мышлении и путях его исследования. – М.: Изд-во АН СССР, 1958. – 148 с.

8. Леонтьев А.Н.. Деятельность. Сознание. Личность. – М.: Политиздат, 1975. – 304 с.

9. Inoyatova, D. Q. (2024). BOSHLANG 'ICH TA'LIMDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI QO 'LLASH: TAJRIBA VA ISTIQBOLLAR. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 12, 96-98.

10. Inozemtsev, A. A. (2022). Kreativ yondashuv orqali o'quvchilar tafakkurini shakllantirish. *Rossiya pedagogik jurnali*, (5), 74–80.